

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK:338.24:658.562:338.45:69

ASHUROVA ZARINA OLIMJONOVNA

**QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIFAT
MENEJMENTINI JORIY ETISH SAMARADORLIGI**

Ixtisoslik: 08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini
olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar: Mamanazarov O.Sh.
iqtisod fanlari nomzodi, professor**

TOSHKENT- 2024

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDA SIFAT MENEJMENTINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....12

- 1.1. Sifat menejmenti tiziminng ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va ahamiyati... 12
- 1.2. Innovatsion iqtisodiyot sharoitlarida qurilish materiallari korxonalarida sifat menejmenti tizimi samaradorligini oshirish yo‘llari.....22
- 1.3. Sifat menejmentini joriy etishning ilg‘or xorijiy tajribalari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari31

Birinchi bob bo‘yicha xulosa39

II BOB. O‘ZBEKISTONDA QURILISH MATERIALLARI SANOATI RIVOJLANISHI VA SIFAT MENEJMENTI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....42

- 2.1. O‘zbekiston qurilish materiallari sanoatining rivojlanish tendensiyalari tahlili41
- 2.2. Qurilish korxonalarida sifat menejmentining iqtisodiy vositalaridan foydalanish jarayonlari tahlili.....54
- 2.3. Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati rivojlanish holatini baholash usullari.....65

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa75

III BOB. INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITLARIDA SIFAT MENEJMENTINING IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH. 76

- 3.1. Sifat menejmentining iqtisodiy mexanizmini darajasini baholashning asosiy yo‘nalishlari76
- 3.2. Sifat menejmenti samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish.....87
- 3.3 Qurilish materiallari sanoati rivojlanish jaryoninining prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish.....96

Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....109

XULOSA111

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI115

ILOVALAR131

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sifat menejmenti tizimini joriy qilish natijaviyligi va samaradorligi masalalari ISO-9000 seriyasidagi standartlardan keng ko‘lamda foydalanish boshlanganidan beri dolzarb bo‘lib kelmoqda. «Dunyo mamlakatlaridagi korxonalarining juda ko‘pchiligi bugungi kunda Xalqaro standartlashtirish tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan sifat menejmenti tamoyillari bo‘yicha boshqaruv tizimlariga o‘tib bo‘lganlar»¹. Sifat menejmenti tizimi (SMT) – bu istalgan tarmoqlar, o‘lchamlar va shakllardagi korxonalarda eng ko‘p tarqalgan xalqaro ISO 9001 standartlari bilan mos holda qo‘llash uchun ishlab chiqilgan boshqaruv tizimidir. Sifat menejmentining xalqaro amaliyotiga ko‘ra mazkur tizim mahsulot/xizmatlarning lozim darajadagi sifatiga erishish uchun korxonada faoliyatining barcha yo‘nalishlari amalga oshiriladigan tuzilmali jarayonlar va elementlarga asoslanadi.

Jahon miqyosida qurilish materiallari sanoatida sifat menejmentini joriy etish samaradorligini oshirishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Sifat menejmenti tamoyillarini joriy qilishning ta’sirchan usullari va uslublarini ishlab chiqish, sifat menejmentini modellarini ishlab chiqish va rivojlantirish, sifat menejmentini joriy etishni tashkiliy jihatlarini takomillashtirish, sifat menejmentini funksiyalarini modellashtirish, mahsulot sifatini zamonaviy talablariga javob berish, sifat menejmentini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish, sifat menejmenti samaradorligini baholash va aniqlash usullarini takomillashtirish masalalari bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va iqtisodiyotni boshqarishda pirovard natija sifatga borib taqalishini hisobga olgan holda, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. «Mamlakatda qabul qilingan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishga katta ahamiyat berilgan»². Bugungi kunda

¹<https://www.nice-consulting.ru/knowledge-base/articles/>.

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ№60-сонли Фармони// <https://lex.uz/docs/5841063>.

mamlakat eksport salohiyatini oshirishda, ayniqsa raqobatga chidamli mahsulotlarni ishlab chiqarishda sifatning o'ri muhimdir. Sifat iqtisodiyotni barcha darajalarida foydalaniladigan zarur iqtisodiy vosita bo'lib, iqtisodiy jarayonlarni samarali boshqarishda sifat menejmenti usulini joriy etish hozirgi davrning dolzarb zaruriy masalasi bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonda barcha tarmoqlar qatorida qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishga katta o'rin berilgan. Hozirda ushbu tarmoqning mamlakat YaIMdagi ulushi 8 foizga to'g'ri kelmoqda, tarmoqda 200 dan ortiq turdagi qurilish materiallari ishlab chiqilmoqda, 37 ta sement zavodlari faoliyat olib bormoqda. Bu borada belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishda qurilish materiallari sanoatida sifat menejmenti tizimi asosiy xususiyatlarni sifatga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishi jihatidan guruhlash, qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish texnologiyasi va ishlab chiqarish jarayonini majmuaviy boshqaruv tizimining yiriklashtirilgan tuzilmasini joriy etish asosida sifat menejmentini tashkil etish samaradorligini oshirish, xalqaro standart talablariga muvofiq sifat tizimlarini joriy etish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish, iste'molchilarni sifatli va ekologik xavfsiz mahsulotlar bilan ta'minlash imkonini beruvchi sifat menejmentini joriy etish muammolari tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarning dolzarbligini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 noyabrdagi PF-6119-son «O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2018 yil 2 apreldagi PF-5392-son «Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2020 yil 5 fevraldagi PQ-4586-son «Qurilish-montaj ishlari sifatini tubdan yaxshilash va qurilishni nazorat qilish tizimini takomillashtirish choralari to'g'risida», 2019 yil 20 sentabrdagi PQ-4464-son «Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida», 2018 yil 2 apreldagi PQ-3646-son «O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori, 2018 yil 14 noyabrdagi PQ-5577-son

«Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amalga oshirilishida mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sifat menejmentining fundamental muammolari aksariyat hollarda g‘arblik tadqiqotchi-olimlar tomonidan keng o‘rganilgan bo‘lib, bunda AQSh, Yaponiya va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida sifat menejmentini joriy qilish masalalariga jiddiy g‘oyalarni olib kirgan E.Deming, Dj.Djuran, K.Isikava, F.Krosbi, A.Feygenbaum, Dj.Xarrington, V.Shuxart, G.Niv, V.Lapidus, L.Zaks, X.Kume, D.Merdok, F.Teylor, G.Emerson, A.Fayol, F.Ford³ va boshqa shu kabi olimlarning ilmiy ishlarini ta‘kidlab o‘tish mumkin.

Shuningdek, sifat menejmenti, uning tamoyillari, amaliyotga joriy qilinishidagi o‘ziga xos xususiyatlari kabi muammolar MDH mamlakatlari ilm-fan va ta‘lim sohasining vakillari bo‘lgan G.V. Versan, O.P. Gludkin, A.V. Glichev, A.D. Nikiforov, G.D. Krilov, V.V. Okrepilov⁴ va boshqa tadqiqotchi-olimlarning ilmiy ishlari hamda monografiyalarida o‘rganilgan.

³Э.Деминг «Новая экономика» Издательство: Эксмо 2008; Дж.Джурэн “Качество в истории цивилизации. Эволюция, тенденции и перспективы управления качеством”. Стандарты и качество, 2004; К.Исикава Японские методы управления качеством. – М.: Экономика, 1988, - 199 с.; Ф.Кросби. Принципы качества. Сокращение издержек качества (Cutting the Cost of Quality) (1966, 1987); А.Фейгенбаум. Всеобщий контроль качества, 1990; Дж.Харрингтон. Пять столпов организационного совершенства. Стандарты и качество, 2004; В.Шухарт. Экономическое управления качеством промышленной продукции. 1931; Г.Нив. Организация как система. – М.: Альпина Паблишер, 2019. – С. 179; В.Лapidus. Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией: монография (стереотипное издание). — Москва: 2020. – 381 с.; Л.Закс. Статистическое оценивание. (Теория и методы). – М.: 1976; Х.Куме. Статистические методы повышения качества. Финансы и статистика, 1990; Д.Мердок. Советская историческая энциклопедия. В 16 томах. — М.: Советская энциклопедия. 1973—1982. Том 9. 1966; Ф.Тейлор. Принципы научного менеджмента. Монография, 1911; Г.Эмерсон. Двенадцать принципов производительности. Учебник / Г. Эмерсон. – М.: Экономика, 1992. – 200 с.; А.Файол. Общее промышленное управления. – Москва.

⁴В.Г.Версан. Система управления качеством. – М.: Изд-во стандартов, 1988. – 102 с.; О.П.Глудкин. Устройства и методы фотометрического контроля в технологии производства. ИС / О. П. Глудкин, А. Е.

O‘zbekistonda umumiy menejment nazariyasi va amaliyotini tadqiq etgan olimlardan S.G‘ulomov, Sh.Sharifxo‘jaev, K.Abduraxmonov, Sh.Zaynutdinov, R.Nurimbetov, M.Ikromov, M.Qosimova, D.Raximova, Sh.Ergashxodjaeva, A.Rashalaxov, N.Q.Yo‘ldoshuv⁵ va boshqalarning ilmiy ishlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Yuqoridagi olimlarning ishlarida sifatni boshqarishning ko‘p jihatlari o‘rganilgan bo‘lsada, ammo bozor iqtisodiyotining hozirgi bosqichida sifat menejmentini joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni tadqiq etish muammosi to‘la o‘rganilmagan. Shu nuqtai-nazardan sifat menejmentini joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni tadqiq etish dissertatsiya mavzusining dolzarbligini tasdiqlaydi.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent arxitektura-qurilish institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № A-2-47 «Quyil Amudaryo mintaqasida qurilish sohasini boshqarishni rivojlantirish strategiyasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish» nomli amaliy loyiha (2017-y.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi korxonalarda sifat menejmentini tashkil etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sifat menejmentini iqtisodiy jarayon tarzidagi mazmuni va hozirgi zamon iqtisodiyotidagi ahamiyatini o‘rganish;

Густов. - М.: Радио и связь, 1981. - 112 с.; Гличев А. В. Основы управления качеством продукции. - М.: Стандарты и качество, 2001. - 424 с.; А.Д.Никифоров. Процессы жизненного цикла продукции в машиностроении. livelib.ru: <https://www.livelib.ru/author/2851/latest-a-d-nikiforov>; Г.Д.Крылова. Основы стандартизации, сертификации, метрологии. Учебник для вузов - 3-е издание, перераб. и доп. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2015. - 671 с.; Окрепилов В.В. Международные стандарты в управлении качеством продукции. Архивная копия от 11 сентября 2016 на Wayback Machine. - Л.: ЛДНТП, 1990.

⁵ С.Фуломов. Ўзбекистон иқтисодиётининг ўсиш ва барқарор ривожланиш омиллари. Фан ва технология 2016; К.Абдурахмонов. Управление человеческими ресурсами организации. Учебник. Авторское право Издательство «Фан» Академии наук Республики Узбекистан, 2020; Ш.Н. Зайнутдинов, И.Р. Нуримбетов. Персонални бошқариш. Ўқув қўлланма. - Тошкент: Митти юлдуз, 2007.

sifat menejmentini tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish;
sifat menejmentini joriy etishning ilg'or xorijiy tajribasi va undan mahalliy korxonalarda foydalanish yo'nalishlari imkoniyatlarini tavsiflash;

O'zbekiston qurilish materiallari sanoatining rivojlanish tendensiyalari tahlilini amalga oshirish;

qurilish korxonalarida menejmentning iqtisodiy vositalari tahlilini o'tkazish;
qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati rivojlanish holatini baholash usullari tahlil qilish;

sifat menejmentining iqtisodiy mexanizmini darajasini baholashning asosiy yo'nalishlarini aniqlash;

sifat menejmentini samaradorligini aniqlash usullarini takomillashtirish yo'llarini belgilash;

qurilish materiallari sanoatida sifat boshqaruvini baholashda prognozlash usullarini joriy etish imkoniyatlarini o'rganish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida «O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi tarkibiga kiruvchi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida sifat menejmentini joriy etish jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmetini qurilish materiallari korxonalarida sifat menejmentini joriy etish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy, texnologik, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada zamonaviy menejment yondashuvlari, tizimli va kompleks yondashuv, tahliliy, SWOT-tahlil, regressiya, diskontlash, korrelyatsiyalash, matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra «sifat menejmenti tizimi» tushunchasining iqtisodiy mazmuni qurilish materiallari sanoatidagi hududiy resurslar taqsimotidan foydalanish orqali o'zaro uyg'unlashtirilgan «sifat piramidasi» tarkibiga kiruvchi asosiy xususiyatlarni sifatga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishi jihatidan guruhlash orqali takomillashtirilgan;

«Qizilqumsement» AJ faoliyatida sifat menejmentini joriy etish samaradorligini mehnatni muhofaza qilish ($Mm=0,5$), ijtimoiy javobgarlik ($Ij=0,15$), atrof-muhitni boshqarish ($Ab=0,15$) va axborot xavfsizligi ($Ax=0,2$) talablarini belgilaydigan standartlar o'rtasidagi nisbatni o'rnatish orqali oshirish asoslangan;

«Qizilqumsement» AJ faoliyatini strategik rivojlantirish iqtisodiy mexanizmning tayanch tarkibiy qismlari xalqaro standart talablariga muvofiq sifat tizimlarini joriy etish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish, iste'molchilarni sifatli va ekologik xavfsiz mahsulotlar bilan ta'minlash imkonini beruvchi sifat menejmentini joriy etish asosida takomillashtirilgan;

«Qizilqumsement» AJ faoliyatida sifat menejmenti tizimi va ISO standartlarini joriy qilish orqali sement ishlab chiqarish hajmining 2028 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar sifat menejmentini joriy qilishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan;

qurilish materiallari sanoati korxonalarida SMT ni joriy qilish samaradorligini ta'minlash bo'yicha uslubiy materiallar va uchta ketma-ket bosqichdan iborat raqobatbardosh salohiyatni oshirish strategiyasining asosiy qoidalari shakllantirilgan;

tarmoq korxonalarining raqobatbardosh salohiyatini barqaror oshirishga qaratilgan uch bosqichdan iborat tarmoq korxonalarining raqobatbardoshligini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgan;

qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonasini strategik rivojlantirishda iqtisodiy mexanizmning tayanch tarkibiy qismlari shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda foydalanilgan axborot bazasining ishonchliligi statistik ma'lumotlarni rasmiy manbalardan, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, «O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasining statistik ma'lumotlari, shuningdek, «Qizilqumsement» AJ, «Bekobodsement» AJ va «Ohangaronsement» AJ,

«Yangiyo‘lsement» AJ ning buxgalteriya hisobotlaridan olinganligi, iqtisodiy tahlil ma’lumotlari nazariy-uslubiy jihatdan asoslanganligi, ilmiy natijalar xalqaro va milliy miqyosdagi anjumanlarda aprotatsiyadan o‘tkazilganligi, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati unda yoritilgan sifat menejmentini metodologik jihatlarini o‘rganish va ilmiy nuqtai nazardan rivojlantirishga oid qarashlar, sifat menejmentini joriy etishda iqtisodiy mexanizmini yangi modellarini yaratish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, sifat menejmentini boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqish va boshqa holatlarini tadbiq etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan xalkaro tizimlar va standartlarni O‘zbekiston korxonalarida qo‘llash, qurilish materiallari ishlab chiqish korxonalarida foydalanish, tadqiqot natijalaridan oliy o‘quv yurtlarida talabalarga sifat menejmenti fanini o‘qitish, bu borada maxsus mutaxassisliklarni ochish, darslik va o‘quv ko‘llanmalarni, masalalar, master-klasslar va kichik-slaydlarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Innovatsion rivojlanish sharoitida qurilish materiallari sanoatida sifat menejmentini joriy etish samaradorligini oshirish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra «sifat menejmenti tizimi» tushunchasining iqtisodiy mazmuni qurilish materiallari sanoatidagi hududiy resurslar taqsimotidan foydalanish orqali o‘zaro uyg‘unlashtirilgan «sifat piramidasi» tarkibiga kiruvchi asosiy xususiyatlarni sifatga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatishi jihatidan guruhlash orqali takomillashtirishga oid uslubiy materiallardan qurilish sanoatining ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan birgalikda respublikaning xom ashyo salohiyatini inobatga olgan holda yangi qurilish materiallari va ulardan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirishda foydalanilgan.

(«O‘zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasining 2023 yil 12 oktabrdagi 05/15-2073-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi

natijasida qurilish materiallari sanoatida mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlashni tashkil etishda sifat menejmentidan foydalanilgan va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini diversifikatsiya qilish va eksport hajmini kengaytirish imkoni yaratilgan;

«Qizilqumsement» AJ faoliyatida sifat menejmentini joriy etish samaradorligini mehnatni muhofaza qilish ($Mm=0,5$), ijtimoiy javobgarlik ($Ij=0,15$), atrof-muhitni boshqarish ($Ab=0,15$) va axborot xavfsizligi ($Ax=0,2$) talablarini belgilaydigan standartlar o'rtasidagi nisbatni o'rnatish orqali oshirish taklifi «Qizilqumsement» AJ amaliyotiga joriy qilingan («O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasining 2023 yil 12 oktabrdagi 05/15-2073-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mazkur korxonada ishlab chiqarish samaradorligini 5%ga oshirish imkoni yaratilgan;

«Qizilqumsement» AJ faoliyatini strategik rivojlantirish iqtisodiy mexanizmning tayanch tarkibiy qismlari xalqaro standart talablariga muvofiq sifat tizimlarini joriy etish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish, iste'molchilarni sifatli va ekologik xavfsiz mahsulotlar bilan ta'minlash imkonini beruvchi sifat menejmentini joriy etish asosida takomillashtirish taklifi «Qizilqumsement» AJ amaliyotiga joriy qilingan («O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasining 2023 yil 12 oktabrdagi 05/15-2073-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida ishchi kuchi samaradorligi 9%ga ortganligi ilmiy jihatdan asoslangan;

«Qizilqumsement» AJ faoliyatida sifat menejmenti tizimi va ISO standartlarini joriy qilish orqali sement ishlab chiqarish hajmining 2028 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari «Qizilqumsement» AJ amaliyotiga joriy qilingan («O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasining 2023 yil 12 oktabrdagi 05/15-2073-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu prognoz natijalariga ko'ra 2028 yilda qurilish materiallari ishlab chiqarishning 2022 yilga nisbatan o'sish sur'ati 2,07%ni tashkil etishi ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 10 ta ilmiy ishlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan respublika jurnallarida 2 ta maqola, xalqaro jurnallarda 1 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat bo'lib, 140 betni tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Huquqiy va meyoriy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabrda O'zRQ-742-son qonuniga 1-ilova, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021 y., 03/21/742/1229-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF№60-sonli Farmoni// <https://lex.uz/docs/5841063>.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 aprelda PF-5392-sonli «Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 mayda PQ-4335-sonli «Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori.

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat, 1996. – B.76–82.

2. O'zbekiston Respublikasining 29.10.2019 y. O'RQ-576-son «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 22.07.2019 y. qabul qilingan, Senat tomonidan 11.10.2019 y. ma'qullangan). <https://nrm.uz/>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni \ lex.uz

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrda PF-5264-sonli «O'zbekiston Respublikasi Innovation rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni \ lex.uz

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 fevralda PQ-139-sonli «Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 maydagi PQ-4335-son «Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi «2017—2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida» gi PF-5635-son Farmoni \\\ lex.uz

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 fevraldagi PQ-4198-son «Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 31 avgustdagi PQ-5239-son «Qurilish materiallari sanoatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabrdagi 2019 yil 10 yanvardagi «Urbanizasiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5623-sonli farmoni \\\ lex.uz

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.04.2018 y. PF-5392-son «Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. \\\ lex.uz

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2022 y. PQ-139-son «Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori \\\ lex.uz

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.11. 2022 y. PQ-425-son «Qurilish loyihalarini amalga oshirishda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, jarayonning ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori \\\ lex.uz

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

18. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2017 yil 23 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 86 b.

19. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

20. Mirziyoev Sh.M. «Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak». - Toshkent: O‘zbekiston, -2017. - 104 b.

21. Mirziyoev Sh.M. «Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz». – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 56 b.

22. Mirziyoev Sh.M. «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi». O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent : «O‘zbekiston», 2017. – 48 b.

23. Mirziyoev Sh.M. «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz». – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.

24. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasi.

III. Ilmiy adabiyotlar, monografiya, ilmiy maqola va ilmiy to‘plamlar:

25. Абчук В.А. Менеджмент. Учебник. «Союз» 2002. Киллен К. - Вопросы управления. – М.: экономика, 1991.

26. Мескон М., Алберт М., Хедури Ф. «Основы Менеджмента». - М.: Дело. 2007.

27. Ковалев, А.И. Менеджмент качества функционирования предприятий / А.И. Ковалев, А.С. Зенкин, А.И. Химичева. - М.: ИП Цюпак, 2010. - 520 с.

28. Логанина, В.И. Разработка системы менеджмента качества на предприятиях: Практическое руководство. / В.И. Логанина. - М.: КДУ, 2008. - 148 с.

29. M.M.Toshpo‘latov, Q.A.Sharipov, N.Q.Yo‘ldoshev «Sifat Menejmenti» darslik. Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi Nashr yili: 2021
30. Matsumoto Kohji: The Rise of the Japanese Corporate System. London: Kegan Paul International, 1995. – P. 276.
31. Стивен П.Роббинс, Каултер М. - Правда об управлении персоналом. – М.: 2004.
32. С.Брю Макконелл и др. Экономикс. Экономика. 1995.
33. Портер – Конкуренция. – М.: Вилвемс. 2001. – С. 222-223.
34. Минсберг Г. Структура в кулаке. Создание эффективной организации. – СПб.: Питер, 2003.
35. Гергикова И. - Менежмент - М.: 1995.
36. Гусаров Ю.В, Гусарова Л.Ф. - Теория Менежмента. Учебник. – М.: Инфра, 2013.
37. Круглова Н.Ю. Основа Менежмента. – М.: КНОРУС, 2013.
38. Исаев Р. Основа Менежмента. Учебник. Шеметов П.В. и др. - Менежмент. – М.: 2013.
39. Фомичев А.Н. Стратегический Менежмент. Учебник. – М.: Дашков -К. 2013.
40. Медведев В. Основа Менежмента. – М.: Дека. 2002.
41. Фатхитдинов Р. Стратегический Менежмент. – М.: Дело, 2004.
42. Бородин.А.И. Состав и структура организационно-экономического механизма стратегического развития предприятия. Изв. Томский политехнической университета. 2003. Т.306.
43. Жигайло В.В. Механизм взаимодействия государства и частного государственного партнерства // экономического науки. 2011.
44. Гличев А.В. Основы управления качеством продукции. - М.: РИА. «Стандарты и качество». 2001. – С. 130-131.
45. Бузырев В.В., Гусеев Е.В., Савалева И.П. - Планирование на строительном предприятии. М.: КноРус, 2010. – 536 с.

46. Никифоров А.Д. - Управление качеством. - М.: Дрофа. 2004. – С. 81.
47. Герчигова И.Н. Менеджмент. – М.: ЮНИТИ. 2007 г. – С. 87.
48. Мескон и другие. Менеджмент. – М.: Дело 2007.
49. Карнухин Д.Н., Милнер Б.З. – Современное управление. Издат центр, 1997.
50. Менеджмент, учебник. Подрес. Максимова М.М. и Игнатовой А.В. – М.: «Банки и биржа». ЮНИТИ. 1998.
51. Ребрин Ю.И. «Основы экономики и управления производством». <http://www.aup.ru/books/m47/35.html>.
52. Каткола В.С. Исходные концепции стратегического управления и их современная оценка. Российский журнал Менеджмента. 2003, № С7-300.
53. Г'уломов С.С. Менеджмент ва бизнес асослари. – Тошкент: Ўқитувчи. 1995.
54. Шарифходжаев М.Ш., Абдуллаев Ё.А. Менеджмент. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи. 2001.
55. Зайниддинов Ш.Н. Менеджмент. – Тошкент. 2014.
56. Figurnov E.V. Proizvodstvenniy potentsial socialisticheskogo obshchestva // Politicheskoe samoobrazovanie. 1982. №1 S.38-46
57. Petti U. Ekonomicheskie i statisticheskie raboti. M.: Sosekgiz, 1940. 211 s.
58. Smit A. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov. M., 1962. 477 s.
59. Антохина, Ю.А. Современные инструменты менеджмента и качества / Ю.А. Антохина. - СПб.: ГУАП, 2011. - 238 с.
60. Ponomarenko, T.V. Strategicheskoe upravlenie kompaniey na osnove analiza i otsenki ekonomicheskogo potentsiala / T.V. Ponomarenko, Ye.I. Ponomarenko. – URL : <http://www.ibl.ru>.
61. Василева, Н.Д. Системы менеджмента качества и их сертификация / Н.Д. Василева, Д.Д. Грибанов. - М.: Русайнс, 2014. - 26 с.

62. Shodmonov Sh. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi – T.: Moliya, 2002. – B. 19.
63. Novikov D.A., Zakoni, zakonomernosti i prinsipi upravleniya. <http://www.mtas.ru/>
64. Антонова, И.И. Всеобщее управление качеством. Основоположники всеобщего менеджмента качества / И.И. Антонова, В.А. Смирнов, С.А. Антонов. - М.: Русайнс, 2016. - 16 с.
65. Вдовин, С.М. Система менеджмента качества организации: Учебное пособие / С.М. Вдовин, Т.А. Салимова, Л.И. Бирюкова. - М.: Инфра-М, 2018. - 224 с.
66. Гродзенский, С. Менеджмент качества: Учебное пособие / С. Гродзенский. - М.: Проспект, 2019. - 200 с.
67. Дшхунян, В.Л. Процессы и менеджмент качества в развитии экономических успехов предприятия / В.Л. Дшхунян, Т.Г. Николская. - М.: Трек, 2005. - 144с.
68. Данилова-Волковская, Г.М. Менеджмент качества выполнения работ, услуг и сервиса (для бакалавров) / Г.М. Данилова-Волковская, Г.И. Молчанов. - М.: КноРус, 2019. - 256 с.
69. Дремина, М.А. Проектный подход к разработке и внедрению систем менеджмента качества: Монография / М.А. Дремина, В.А. Копнов, А.А. Станкин. - СПб.: Лан, 2015. - 304 с.
70. Заика, И.Т. Документирование системы менеджмента качества / И.Т. Заика, Н.И. Гителсон. - М.: КноРус, 2015. - 30 с.
71. Минко, Э.В. Менеджмент качества: Учебное пособие / Э.В. Минко. - СПб.: Питер, 2017. - 464 с.
72. Серенков, П.С. Методы менеджмента качества. Процессный подход: Учебное пособие / П.С. Серенков, А.Г. Курян, В.П. Волонтей. - М.: Инфра-М, 2018. - 336 с.

73. Серенков, П.С. Методы менеджмента качества. Методология управления риском стандартизации / П.С. Серенков, В.Л. Гуревич, В.М. Романчук. - М.: Инфра-М, 2018. - 149 с.
74. Серенков, П.С. Методы менеджмента качества. Методология управ. / П.С. Серенков, В.Л. Гуревич, В.М. Романчук. - М.: Инфра-М, 2015. - 152 с.
75. Федоскина, Л.А. Менеджмент качества и обеспечение безопасности в автомобильном бизнесе: Монография / Л.А. Федоскина. - М.: Инфра-М, 2018. - 320 с.
76. Федоскина, Л.А. Менеджмент качества и обесп.безопас. в.: Монография / Л.А. Федоскина. - М.: Инфра-М, 2018. - 320 с.
77. Шемякина, Т.Ю. Производственный менеджмент: упр.качества.: Учебное пособие / Т.Ю. Шемякина, М.Ю. Селивохин. - М.: Алфа-М, 2018. - 160 с.
78. Шмелева, А.Н. Оценка эффективности менеджмента и систем менеджмента качества / А.Н. Шмелева, Р.М. Нижегородцев. - М.: Русайнс, 2015. - 320 с.
79. Kene, F. Fiziokrati: izbrannie ekonomicheskie proizvedeniya [Tekst] / F.Kene, A.R.J.Tyurgo, P.S.Dyupon de Nemur; [predisl. P.N.Klyukin; per. s frans., angl., nem.]. - М.: Eksmo, 2008. – 1200 s
80. Westley F., Mintzberg H. Visionary leadership and strategic management // Strategic Management Journal. – 2005. – p. 32.
81. Лукманова, И.Г. Менеджмент качества: Учебник для бакалавров. / И.Г. Лукманова, Е.В. Нежникова. - М.: АСВ, 2012. - 168 с.
82. Матрос, Д.Ш. Менеджмент качества в школе на основе стандартов серии ГОСТ Р ИСО 9000-2001, новых информационных технологий и образовательного мониторинга / Д.Ш. Матрос. - М.: ЦПО, 2008. - 288 с.
83. Ansoff I. Strategicheskoe upravlenie. - М.: Ekonomika, 1989. 303 s.

84. Morozov V.A., Morozova O.K.. Otsenka effektivnosti deyatel'nosti byudjetnogo uchrejdeniya organami gosudarstvennogo i munitsipalnogo upravleniya // Buxgalterskiy uchet v byudjetnykh i nekommercheskikh organizatsiyax. 2006. №3. S. 17-21.

85. Xolosha Ye.A. Ekonomicheskiy i upravlencheskiy potentsial uchrejdeniya kak kriteriy opredeleniya yego tipa //Upravlenie ekonomicheskimi sistemami (elektronniy nauchniy jurnal). - 11L 2.12.

86. Lamoureux K. (2008). High potential versus high performance: what is the real difference? <http://www.bersin.com/Practice/Detail.aspx?id=7396>.

87. Borzenkova K.S. Osenka ekonomicheskogo potentsiala predpriyatiya i povishenie effektivnosti yego ispolzovaniya: avtoref. dis... kand. ekon. nauk: 08.00.05 / Borzenkova K.S. – Belgorod, 2003. – 25 s.

88. Razinkov, P.I. Problemi sovershenstvovaniya upravleniya na predpriyatii v usloviyax nestabil'nogo rinka. V sbornike: Problemi upravleniya v sosialno-gumanitarnix, ekonomicheskix i texnicheskix sistemax. Sbornik nauchnix trudov prepodavateley, aspirantov, magistrantov, studentov fakulteta upravleniya i sosialnix kommunikatsiy. Pod obshey redaksiey I.I. Pavlova, otvetstvenniy za vipusk: Ilin O.Yu.. Tver, 2015. S. 209-213.

89. Berdnikova, L.F. Metodicheskie osnovi analiza resursnogo potentsiala stroitel'nix organizatsiy: dis. kand. ekon. nauk /L.F. Berdnikova. Tolyatti, 2009. 227 s.

90. Kovalev. V.V. Osnovi teorii finansovogo menedjmenta / V.V. Kovalev. M.: Infra-M. 2016. 544 s.

91. Barashkova, O.V. Metodika osenki resursnogo potentsiala sel'skoxozyaystvennogo predpriyatiya // O.V. Barashkova, V.N. Ostresov. Molochnoxozyaystvenniy vestnik. Ekonomika i ekonomicheskie nauki. 2012. № 4 (8). S. 33.

92. Xamidullin, F.F. Metodi osenki effektivnogo ispolzovaniya resursnogo potentsiala predpriyatiya / F.F. Xamidullin, A.R. Davletshina. Vestnik TISBI. 2013. № 4. S. 100-108.

93. Xlinin E.V. Metodi i modeli upravleniya prosessom vosproizvodstva osnovnogo kapitala / E.V. Xinin, S.V. Gorodnichev, Izvestiya Tul'skogo gosudarstvennogo universiteta. Ekonomicheskie i yuridicheskie nauki. 2014. № 3-1. S. 114-123.

94. Nemchinov A. Osenka finansovogo potentsiala trgovogo predpriyatiya, soiskatel kafedri teorii i texnologiy v menedjmente FGAOU VO «Yujniy federalniy universitet» (Rostov-na-Donu)

95. Sudakova Ye.S. Otsenka trudovogo potentsiala personala: podxodi, metodi, metodika, FGBOU VPO «Gosudarstvenniy universitet upravleniya» Rossiya, Moskva. Kafedra upravleniya personalom, Vipusk 4 (23), iyul – avgust 2014, Internet-jurnal «NAUKOVEDENIE» <http://naukovedenie.ru>

96. Abulqosimov X.P. Shakllanayotgan bozor iqtisodiyotida inson omili va uni faollashtirish yo'llari. - T.: TMI. 2005. - 114 b.

97. Nasibullin, E.N. Korporativnoe obuchenie kak faktor povisheniya intellektualnogo potentsiala personala organizatsii [Elektronniy resurs].-Rejim dostupa: http://vml.antat.ru/files/Mahmutov/article_3

98. Buyanov V.P., Kirsanov K.A., Mixaylova L.M. Riskologiya (upravlenie riskami). – Uch. posobie. – 2-ye izd. ispr. i dop. – M.: Ekzamen, 2003, 384 s

99. Chernyak V.Z. Upravlenie investitsionnim proektom v stroitelstve. – Russkaya delovaya literatura, 1998, 800 s

100. Заика, И.Т. Документирование системы менеджмента качества / И.Т. Заика, Н.И. Гителсон. - М.: КноРус, 2015. - 30 с.

101. Petrosov A.A. Mangush K.S. Ekonomicheskie riski gornogo proizvodstva. – M.: Izd-vo MGGU, 2002, 142 s.

102. Lixterman S.S., Djunusova D.I. Investitsionnaya strategiya i riski korporativnogo negosudarstvennogo pensionnogo fonda ugolnogo predpriyatiya. – M.: GIAB №3, 2004, s. 126-131

103. Popovich N.N. Ekonomicheskiy mexanizm otsenki rekonstruktsii ugledobivayushix predpriyatii. – M.: Izd. dom «Noviy vek», 2000, 242 s.

104. B.T. Salimov, M.S. Yusupov, B.B. Salimov. Mikroiqtisodiyot. Darslik. -T.: Iqtisodiyot, 2019, - b130.

105. Basalaeva, Ye.V. O problemax issledovaniya ekonomicheskogo potentsiala i nekotorig sposobax ix resheniya / Ye.V. Basalaeva // Nauchnaya sessiya MIFI – 2006. T. 13 / Vserossiyskiy zaochniy finansovo -ekonomicheskiiy institut. – M., 2006. – S.45-50

106. Golovkina L.A., Jigunova O.A., Semenova S.V. Teoreticheskiye aspekti prognozirovaniya veroyatnosti bankrotstva i uchet, svyazanniy s protsedurami bankrotstva na predpriyatiyax: monografiya. – M.: Neft i gaz, 2008. – 125 s. 61

107. Gunina I.A. Teoretiko-metodologicheskie osnovi formirovaniya konsepsii razvitiya ekonomicheskogo potentsiala predpriyatiya // Mashinostroitel. – 2004. - № 10. S.10-14

108. Jigunova O.A. Teoriya i metodologiya analiza i prognozirovaniya ekonomicheskogo potentsiala predpriyatiya: monografiya. – M.: ID «Finansi i Kredit», 2010. – 140 s.

109. Berdnikova T.B. Analiz i diagnostika finansovo-xozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatiya: ucheb. posobie / T.B. Berdnikova. – M.: INFRA-M, 2011. – 215 s (s.145)

110. Yefimova O.V. Analiz finansovoy otchetnosti: ucheb. posobie dlya studentov / pod red. O.V. Yefimovoy, M.V. Melnik. – M.: Izd-vo OMEGA-L, 2011. – 408 s. (s.201)

111. Zabolotskaya, N. V. Otsenka ekonomicheskogo potentsiala predpriyatiya / N. V. Zabolotskaya, T. V. Kozlova // Ekonomicheskiiy analiz: teoriya i praktika. — 2009. — №5. — S. 42-47.

112. Panibratov, Yu. P. Problemi formirovaniya ekonomicheskogo potentsiala investitsionno-stroitel'nogo xoldinga / Yu. P. Panibratov, V. L. sapu // Transportnoe delo Rossii — 2011. — №8. — S. 48–49.

113. Biryukova, A. A. Issledovanie ekonomicheskogo potentsiala malogo predpriyatiya [Elektronniy resurs] / A. A. Biryukova // Materiali VIII

Mejdunarodnoy studencheskoy elektronnoy nauchnoy konferensii «Studencheskiy nauchniy forum» — Rejim dostupa: www.sscienceforum.ru/2016/1781/16757 (data obrasheniya: 20.03.2018).

114. Gvozdenko A. N. Ispolzovanie metodiki mnogofaktornogo SWOT-analiza dlya razrabotki strategicheskix napravleniy deyatel'nosti / A N Gvozdenko // Marketing i marketingovie issledovaniya 2006 - № 4- S.13-16.

115. Xaken G. Osnovnie ponyatiya sinergetiki // Sinergeticheskaya paradigma. –M.: 2000, –S.29

116. Suvorova L.A. Sinergeticheskiy effekt klasterizatsii otrasli: analiz, otsenka, prognoz: monografiya. – Kirov: VyatGU, 2015. – S.91-92.

117. Ismailov A.M. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini boshqarish. Monografiya. – T.: «METODIST NASHRIYOTI», 2023. – 166 b.

118. Кониной П. Ю.. Менеджмент / под ред. М.: Аспект-пресс, 2016. С. 50.

119. Котлер Ф., Келлер К.Л. Маркетинг менеджмент. 12-е изд. СПб.: Питер, 2011. 816 с., ISBN: 978-5-4590-0841-8.

120. Кох Р. Менеджмент и финансы от А до Я. СПб., 1999.

121. Кунде Й. Корпоративная религия. СПб., 2002. – С. 18.

122. Qosimova D.S. Menejment nazariyasi: Darslik. – T.: Tafakkur-bo‘stoni, 2019.

123. Ismatullaev P.R. va boshkalar. «Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirishga muqaddima». Uquv qollanma, Toshkent.:TDTU.1993

124. Абдувалиев А.А.и др. «Основы стандартизации, сертификации, метрологии и управления качеством продукции». Учебное пособие.- Ташкент.: Издательство ТГТУ, 2002.-287 с

125. Антонов Г.А. «Стандартизация и сертификация продукции», - СПб., 2008

126. Медведев М.А. Международная стандартизация. - М., 2007. - 234 стр.

127. Саидов М. Х. Менежмент и экономика высшего образования –

Ташкент: Молия, 2001. – 255 с

128. Ismatullaev P.R., Axmedov B.M., Matyakubova P.M., Xamrokulov G'.X., Turaev Sh.A. «Sifat menejmenti tizimi va uni sertifikatlashtirish»: Darslik. - Toshkent 2014.

129. Мерзликина, Н. В. Управление качеством. Версия 1.0 [Электронный ресурс] : электрон. учеб. пособие / Н. В. Мерзликина, А. А. Недбай. – Электрон. дан. (3 Мб). – Красноярск : ИПК СФУ, 2008.

130. Zaynutdinov Sh. N., Nurimbetov R. I. Resursnaya baza i potencial proizvodstvo Uzbekistana: ispolzovaniya i effektivnost (regionalniy aspekt) // Byulleten nauki i praktiki. Elektron.jurn. 2017. №10 (23). S. 207-212. Rejim dostupa: <http://www.bulletennauki.com/zaynutdinov> (data obrasheniya 15.10.2017)

131. Kalmetov B.D., Kazimov V.A., Gimush R.I. Uglublenie ekonomicheskix reform v stroitelnom komplekse Uzbekistana. Monografiya Tashkent, 2006. 186 s.

132. Niyazov S.M. Ekonomicheskoe reformirovanie proizvodstvenno-texnicheskoy bazi stroitelstva.-T.: Izd-vo«Fan va texnologiya», 2010.-176s.

133. Ismailov A.M. Qurilish ishlab chiqarish jarayonida ishchi va xodimlar mehnatidan samarali foydalanish va uni boshqarish//Arxitektura, qurilish va dizayn ilmiy amaliy jurnali, T.2-son 2021, b.259-263.

134. Ismailov A.M. Qurilish ishlab chiqarish jarayonida ishchi va xodimlar mehnatidan samarali foydalanish va uni boshqarish // Toshkent arxitektura-qurilish instituti, «Arxitektura va qurilish sohasida innovasiya, integrasiya, tejamkorlik» mavzusidagi xalqaro on-line ilmiy - amaliy konferensiya 2021 yil 5-6 may, b.285-287.

135. Zaynutdinov SH., Nurimbetov R.I, Ismailov A.M. Effektivnost kachestva raboti rukovoditelya v usloviyax rinochnix otnosheniy // Byulleten nauki i praktiki / Bulletin of Science and Practice. T. 7. №2. 2021. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/63/23>

136. Kasimov A.A., Ismailov A.M., Yuldashev G.T. Sosio-economic reforms in uzbekistan: economic growth and sosial development. Asian Journal of Research in Business Economics and Management// ISSN: 2249-7307 Vol. 12, Issue 2, February 2022 SJIF 2022 = 8.529 A peer reviewed journal. DOI: 10.5958/2249-7307.2022.00013.5

137. Ismailov A.M., Yuldashev G.T. Qurilish ishlab chiqarish jarayonida aholi bandligi va ular mehnatidan samarali foydalanish // Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, real sektor tarmoqlarining ishlab chiqarish salohiyatini oshirish asosida hududlarni barqaror rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashning dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya maqolalar to'plami (2021-yil 25-noyabr).- b.253 -255.

138. Halilov N.X. «Sanoat korxonalarida sifatni boshqarish tizimini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari» Monografiya.T.: - Noshir 2014 y.

139. Ашурова З.О. «Экономическая процессовая система качеством менеджмента, его содержание и значение». «Системный анализ и синтез моделей научного развития общества. Сборник статей Международной научно-практической конференции. 76-77стр. Екатиринбург 29 июля 2020 г.

140. Ашурова З.О. Анализ видов оценки менеджмента качества на предприятиях. «Экономическое развитие России в условиях Пандемии: анатомия самоизоляции, глобалний Локдаун и онлайн-будущее» Материали Международной научно-практической конференции. 66-71стр. Краснодар, 19–22 апреля 2021 г. Том 1

141. Ashurova Z.O. Sifat menejmentining iqtisodiy mexanizmini darajasini baholash usullari. «Raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining to'plami 4-qism. 222-226 b. Nukus 2021 y.12 oktabr

142. Ashurova Z.O. Use of foreign experience in the field of quality management at the enterprises of Uzbekistan. Galaxy International Interdisciplinaty

research journal (Giirj) ISSN:2347-6915.559-565 pg. SJIF Impact Factor:7.472.
Vol.9.Issue 12.Dec 2021

143. Ashurova Z.O. «Implementation of quality management in the construction Materials industry». O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlar davriy anjumanlar materiallari 9-qism, 20-22 b. Toshkent 2022 y dekabr. № 47

144. Ashurova Z.O. Qurilish korxonalarida sifat menejmentini baholashda modellashtirish usullaridan foydalanish. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali 9-13 b. Toshkent 2023 yil 6-son oktabr.

145. Ashurova Z.O. Анализ экономических средств управления на строительных предприятиях. «Shaharlarni rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 258-261 b. Toshkent 2023 yil 9 noyabr.

146. Ashurova Z.O. Qurilish materiallari sanoatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi tahlili. «Qurilish materiallari sanoatining ijtimoiy-kommunal xizmat kursatish sohalari iqtisodiyoti hamda boshqaruvning dolzarb masalalari muammo va yechimlar» mavzusidagi respublika ilmiy texnik konferensiya materiallari toplami. 187-192 b. 2023 yil 23-24 noyabr.

147. Ashurova Z.O. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, 242-246 b. 2024 yil 9-son.

148. Ашурова З.О. Специфические черты менеджмента Строительной отрасли. «PUBLISHING HOUSE «PROBLEMS OF SCIENCE» Economics 20-21 стр. № ЕС-7753 от 30 мая 2019 г.

III. Dissertatsiya ishlari:

149. Пренниников В.В. Стратегическое управление финансово-экономического кризисных условий. Диссертация кандидат экономической наук. – М.: 1999.

150. Управление качеством образования: Практикоориентированная монография и методическое пособие / под ред. М.М. Поташника - М.: Педагогическое общество России, 2000 - 448 с

151. Vasilev Ye.V. Otsenka effektivnosti deyatelnosti stroitel'nogo predpriyatiya metodami risk-menedjmenta: dis... kand. ekon. nauk: 08.00.05 / Vasilev Ye.V. TyumGASU. – Tyumen, 2004. – 149 s.

152. Ташмухамедова Г.Р «Сифат менежменти тизими асосида банк рискларини бошқариш» фалсафа доктори (PhD) диссертацияси

IV. Statistik materiallar

153. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2010-2020 yu ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha materiallari. Statistik to‘plam.

154. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma’lumotlari.

155. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonda qurilish.2014-2017 yillar.Statistik to‘plam.-T., «O‘zstat»2018.-B.-216.

156. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonda qurilish.2015-2018 yillar.Statistik to‘plam.-T.«O‘zstat», 2019.-B.-184.

157. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston raqamlarda.Statistik to‘plam.-T.,«O‘zstat»,2018.-B.-243.

158. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston raqamlarda.2017-2018 y.y. Statistik to‘plam.-T.,«O‘zstat», 2018.-B.-260.

V.Internet saytlari:

159. Gosudarstvennoy komitet statistiki Respubliki Uzbekistan [Электронный ресурс]. – Rejim dostupa: <http://www.stat.uz>.

160. RBK (RosBiznesKonsalting) [Электронный ресурс] // URL: <http://quote.rbc.ru>

161. Global Innovation Index [Электронный ресурс].–Rejim dostupa: <http://www.wipo.int>.

162. <http://www.sisstat.com> (Mejgosudarstvennyy statisticheskiy komitet SNG).
163. <http://www.ebiblioteka.ru> (RF elektron kutubxonasi sayti)
164. <http://www.gov.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Hukumati)
165. <http://www.ziyonet.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti).
166. <http://www.lex.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi).
167. <http://www.stat.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi).
168. <http://www.oecd.org/sti/inno/39374789.pdf>
169. <http://www.cass.sity.ac.uk/faculty-and-research/centres/>
170. <http://www.mckinsey.com/about-us/overview>